| | |
|---|---|
| | www.pedagog.uz<br>www.edu.uz<br>www.natlib.uz<br>www.ziyonet.uz |
| 7. | **Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023-yil "29" avgust dagi qarori bilan tasdiqlangan** |
| 8. | **Fan/modul uchun ma'sul:**<br>**F.A.Ibroximov** – CHDPU, "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasi katta o'qituvchisi<br>**O.Berkinov** – CHDPU, "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasi o'qituvchisi |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>**M.X.Borotov** – O'zFA Davlat va huquq instituti bo'lim boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor.<br>**R.A. Ikramov** – Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasi dotsenti, y.f.n. |

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti rektori
G.I.Muxamedov
____________
2023-yil “19” 08 ________

# HUQUQ SOHALARI I

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 100000 – Ta’lim |
| Ta’lim sohasi: | 110000 – Ta’lim |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 60112100 – Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi |

**Chirchiq – 2023**

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/modul kodi<br>Hs 208</td><td>O‘quv yili<br>2024-2025</td><td>Semestr<br>3-4</td><td colspan="2">ECTS - Kreditlar<br>4-4</td></tr>
<tr><td colspan="2">Fan/modul turi<br>Majburiy</td><td colspan="2">Ta’lim tili<br>O‘zbek</td><td colspan="2">Haftadagi dars soatlari<br>3-semestr - 4<br>4-semestr - 4</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1.</td><td colspan="2">Fanning nomi</td><td>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta’lim (soat)</td><td>Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td colspan="2">Huquq sohalari I (Fuqarolik huquqi)</td><td>60</td><td>60</td><td>120</td></tr>
<tr><td></td><td colspan="2">Huquq sohalari I (Oila huquqi)</td><td>60</td><td>60</td><td>120</td></tr>
<tr><td></td><td colspan="2">Jami</td><td>120</td><td>120</td><td>240</td></tr>
</table>

2. **I. Fanning mazmuni.**

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarni fuqarolik va oila huquqi doirasida amalga oshiriladigan huquqiy munosabatlar bilan tanishtirish va ularni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalalar, fuqarolik va oilaviy huquqiy munosabatlar, bunday huquqiy munosabatlarning subyekti, obyekti, bitimlar, da’vo muddati, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar va ularni himoya qilish, majburiyatlar, zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar, shartnoma to‘g‘risida umumiy qoidalar, fuqaroning hayoti va sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash qoidalari, ma’naviy zararni qoplash, intellektual mulk, vorislik to‘g‘risida umumiy qoidalar, merosni egallash, shuningdek nikoh, nikoh tuzish tartibi va shartlari, ota-ona va bolalarning huquq-majburiyatlari, er-x-tinning o`zaro mulkiy va shaxsiy-nomulkiy huquq-majburiyatlari, nikoh shartnomasi, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, aliment masalalari, fuqarolik holati dalolatnomalarini shakllantirish tartibi, chet el elementi ishtirokida oilaviy huquqiy munosabatlarning tartibga solinishi kabi masalalarni tahlil qilishdan iborat.

**II. Nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**
**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**Fuqarolik huquqi**

**1-mavzu. Fuqarolik huquqi tushunchasi, tamoyillari va tizimi**

Fuqarolik huquqi tushunchasi, xususiyatlari va boshqa huquq sohalari bilan aloqadorligi. Fuqarolik huquqi tamoyillari. Fuqarolik huquqining funksiyalari. Fuqarolik huquqi tizimi. Fuqarolik huquqi fanining ahamiyati va dolzarbliligi.

**2-mavzu. Fuqarolik huquqining manbalari.**

Fuqarolik huquqi manbalari tushunchasi va turlari. Fuqarolik qonun hujjatlarining vaqt, hudud va shaxslar bo‘yicha amalda bo‘lishi. Qonun analogiyasi va huquq

| | |
|---|---|
| | analogiyasi. Fuqarolik-huquqiy nonmalarni sharhlash va ularning turlari. Fuqarolik kodeksi, tuzilish tartibi.<br><br>**3-mavzu. Fuqarolik-huquqiy munosabat va uning subyektlari.**<br><br>Fuqarolik-huquqiy munosabat tushunchasi va mohiyati. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarning turlari (tasnifi). Fuqarolarning tadbirkorlik faoliyati. Fuqarolaming yashash joyi. Fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish. Fuqarolik huquqlari va burchlariniug kelib chiqish asoslari. Yuridik faktlar. Fuqarolar – fuqarolik huquqining subyektlari sifatida. Davlat – fuqarolik huquqining subyektlari sifatida.<br><br>**4-mavzu. Yuridik shaxslar – fuqarolik huquqining subyekti sifatida.**<br><br>Yuridik shaxs tushunchasi va belgilari. Yuridik shaxsning huquq layoqati va muomala layoqati. Yuridik shaxslaming vujudga kelish va bekor bo'lishi. Yuridik shaxslaming turlariga umumiy tavsif.<br><br>**5-mavzu. Fuqarolik huquqining obyektlari.**<br><br>Fuqarolik huquqi obyektlari tushunchasi va tasniftanishi. Mol-mulk — fuqarolik huquqining obyekti sifatida. Pullar va qimmatli qog'ozlar — fuqarolik huquqining obyekti. Moddiy ne'matlar. Nomoddiy ne'matlar. Ishlar va xizmatlar - fuqarolik huquqining obyekti sifatida. Xizmat va tijorat siri. Shaxsiy nomulkiy huquqlar.<br><br>**6-mavzu. Bitimlar.**<br><br>Bitimlar tushunchasi va turlari. Bitimlarning muddatlari va shartli bitimlar. Bitim shakllari. Birja bitimiari. Bitimning haqiqiy sanalish shartlari. O'z-o'zidan haqiqiy sanalmaydigan bitim turlari va ularning huquqiy oqibatlari. O 'z-o'zidan (mutlaq) haqiqiy sanahnaydigan bitimlar.<br><br>**7-mavzu. Vakillik va ishonchnoma.**<br><br>Vakillik tushunchasi. Vakolatning turlari. Vakillikning klassifikatsiyasi. Ishonchnoma. Umumiy ishonchnoma. Maxsus ishonchnoma. Bir martalik ishonchnoma. Xorijiy va milliy tajriba va islohotlar.<br><br>**8-mavzu. Fuqarolik huquqida muddatlar va da'vo muddati.**<br><br>Muddatlar tushunchasi va ahamiyati. Muddatlarning turlari. Majburiyatiarni bajarish muddatlari. Muddatlarni hisoblash asoslari va tartibi. Da'vo muddati tushunchasi va ahamiyati. Da'vo muddatining turlari. Da'vo muddatining o'ta boshlashi. Da'vo muddati o'tishining to'xtatilishi, uzilishi va da'vo muddatining |

tiklanishi. Da’vo muddati o‘tishining oqibatlari. Da’vo muddati joriy qilinmaydigan talablar.

**9-mavzu. Mulk huquqi.**

Mulk huquqi tushunchasi va mazmuni. Ashyoviy huquqlar. Mulk huquqining vujudga kelish va bekor bo‘lish asoslari.

**10-mavzu. Mulk huquqi turlari**

Xususiy mulk huquqi. Ommaviy(davlat) mulk huquqi. Umumiy mulk huquqi. Mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarni himoya qilish.

**11-mavzu. Majburiyat huquqi tushunchasi, tizimi, vujudga kelish asoslari.**

Majburiyat huquqi tushunchasi, tizimi, vujudga kelish asoslari. Majburiyat subyektlari. Majburiyatdagi shaxslarning o‘zgarishi. Regress (qaytarma) majburiyat.

**12-mavzu. Majburiyatlarni bajarish. Majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash.**

Majburiyatlarni bajarish tushunchasi va tamoyillari. Majburiyatlarni bajaruvchi subycktlar (shaxslar). Bajarish predmeti. Majburiyatni bajarish muddati, joyi va usuli. Majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash tushunchasi. Neustoyka. Garov. Ushlab qolish. Kafillik. Kafolat. Zakalat.

**13-mavzu. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik.**

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik: mohiyati, tushunchasi, tavsifi. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik asoslari. Javobgarlik subyekti va huquqbuzarlik subyekti: o‘zaro nisbat. Ayb – fuqarolik-huquqiy javobgarlik asosi sifatida. Fuqarolik-huquqiy javobgarlikda qo‘llaniladigan fuqarolik ta’sir choralari. Zararni qoplash fuqarolik-huquqiy javobgarlik shakli sifatida. Fuqarolik-huquqiy javobgarlikdan ozod qilish.

**14-mavzu. Shartnomalar.**

Shartnoma tushunchasi va uning bozor munosabatlari sharoitidagi ahamiyati. Shartnomalarning turlari. Shartnom aning mazmuni. Shartnoma tuzish. Oldi-sotdi shartnomasi. Hadya va renta shartnomalari. Mulk ijarasi shartnomasi.

**15-mavzu. Vorislik**

Vorislikning huquqiy asoslari. Vorislik fuqarolik huquqiy munosabatlardagi ahamiyati. Meros. Qonun bo‘yicha vorislik.